

№2, 2021 y. 14 oktyabr

**Jahonda va O'zbekiston Respublikasida  
uzumchilik va vinochilik sohasidagi qonunchilik  
hujjatlari va strategik hujjatlar obzori**

**DAYJEST**

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi  
Ilmiy-texnik axborot markazi

Toshkent-2021



*“Uzumchilik bu – xalqimizning asrlar davomidagi milliy dehqonchilik madaniyati, qadriyati, g‘ururi va daromad manbai hisoblanadi. Uzum xalqimizning turmush tarzi va urf-odatlar bilan bevosita bog‘lanib ketgan”*

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Sh.M. Mirziyoev*

**«Jahonda va O‘zbekiston Respublikasida uzumchilik va vinochilik sohasidagi qonunchilik hujjatlari va strategik hujjatlar obzori» dayjesti. - T.: 2021. 18 b.**

«Jahonda va O‘zbekiston Respublikasida uzumchilik va vinochilik sohasidagi qonunchilik hujjatlari va strategik hujjatlar obzori» dayjesti O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Ilmiy-texnik axborot markazi tomonidan tayyorlangan.

**Mualliflar jamoasi:**



Abduraxmanov I.Y.  
Turdiqulova Sh.O‘.  
Abduvaliev A.A.  
Musaeva R.A.  
Barbu G.F.

**Texnik muharrir:**

Rayimjonov X.G.

© O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Ilmiy-texnik axborot markazi , 2021 y.

# Jahonda va O‘zbekiston Respublikasida uzumchilik va vinochilik sohasidagi qonunchilik hujjatlari va strategik hujjatlar obzori

Mamlakat	Normativ hujjat/Qabul qilish sanasi	Maqsadi/Vazifalari
<div>Xalqaro dasturlar</div> <div></div>	<div>«The OIV 2020-2024 strategic plan»</div> <div>2020-2024 yillar uchun Xalqaro uzumchilik va vinochilik tashkiloti (XUVT) uchun strategik reja. [1]</div>	<div>- ekologik toza uzumchilikni targ‘ib qilish;</div> <div>- uzumchilik orqali ijtimoiy taraqqiyotga ko‘maklashish;</div> <div>- uzumchilik sektorida tengsizlikni kamaytirish;</div> <div>- ilmiy-tadqiqot laboratoriyalarining o‘zaro taqqoslanadigan uslublarini ta‘minlash;</div> <div>- mavjud standartlar va amaliyotlarni xalqaro darajada kelishib olish;</div> <div>- uzum xom ashyosi va vino materiallarini ishlab chiqarish va sotish jarayonlarini modernizatsiya qilish maqsadida yangi standartlarni ishlab chiqish;</div> <div>- vino mahsulotlarini tamg‘alash va taqdim etish bo‘yicha tavsiyalarni ishlab chiqish.</div>
<div>AQSh</div> <div></div>	<div>1988 yilgi «Alkogol ichimliklarni tamg‘alash to‘g‘risida» gi qonun [2]</div>	<div>Alkogol bo‘yicha federal boshqaruv to‘g‘risidagi qonun mahsulot haqida muhim va to‘g‘ri ma‘lumotlarni taqdim etish maqsadida Alkogol tamg‘alanishi va reklamasini puxta tekshiruvini talab qilgan holda</div>






# Jahonda va O‘zbekiston Respublikasida uzumchilik va vinochilik sohasidagi qonunchilik hujjatlari va strategik hujjatlar obzori

Mamlakat	Normativ hujjat/Qabul qilish sanasi	Maqsadi/Vazifalari
		vino tamg‘alanishi uchun qoidalarni belgilaydi. Qonunda Alkogol ichimliklar sotishni tartibga solish ham nazarda tutilgan.
<div>Germaniya</div> <div></div>	27.01.2021 yildagi «Vino to‘g‘risidagi qonun» (1971 y.) ga o‘ninchi tuzatish [3]	Vinoning kelib chiqishi va navi terruara tamoyiliga asoslangan konsepsiyaga amal qilish: tuproq, ekspozitsiya, qiyalik va alohida uchastka mezoiklimi bilan belgilanadi. Kelib chiqishning ushbu tamoyili Landwein (mahalliy vino) dan Qualitätswein (yuqori probali vino)gacha va ma’lum bir rayonlardan alohida uchastkalargacha barcha toifalarni qamrab oladi.
<div>Italiya</div> <div></div>	«Vinoni ishlab chiqarish uchun intizomiy nizom» Prezident dekreti. 1963 y. [4]	Qonun vinolarning kelib chiqishi bo‘yicha nomlarni nazorat qilish tizimini tartibga soladi. Ushbu tizim nafaqat yuqori sifatli vinoni himoya qiladi, balki uni yetishtirishning ko‘rsatilgan zonasidan ushbu ichimlikning kelib chiqishini iste’molchiga kafolatlaydi.

# Jahonda va O'zbekiston Respublikasida uzumchilik va vinochilik sohasidagi qonunchilik hujjatlari va strategik hujjatlar obzori

Mamlakat	Normativ hujjat/Qabul qilish sanasi	Maqsadi/Vazifalari
<b>Ispaniya</b> 	10.07.2003 yildagi 24/2003-son «Uzumzorlar va vino to'g'risida»gi qonun [5]	<p>Qonun bilan ushbu qonun hujjati tartibga solish predmetining mazmuni belgilab berilgan, mahsulot turlari va uzumchilik uslublarining aniq ta'riflari keltirilgan.</p> <p>Bundan tashqari, tokni sug'orishni nazorat qilish va spirtning tabiiy foizini sun'iy ravishda oshirishni tartibga soladi.</p> <p>Quyidagilar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- uzumzorlar va vino, shuningdek, uning belgilanishi, taqdim etilishi, targ'iboti va reklamasini Yevropa Ittifoqi normativ hujjatlari doirasida asosiy tartibga solish;</li> <li>- ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarning manfaatlarini himoya qilish uchun o'rnatiluvchi vinoning kelib chiqishi va sifatining turli darajalari, shuningdek, nomlarini noto'g'ri foydalanishdan qonuniy himoya qilish tizimi;</li> <li>- oldingi bandlarda ko'rsatilgan faoliyat sohalaridagi ma'muriy huquqbuzarliklar uchun javobgarlik Qonunning tartibga solish predmeti hisoblanadi.</li> </ul>

# Jahonda va O'zbekiston Respublikasida uzumchilik va vinochilik sohasidagi qonunchilik hujjatlari va strategik hujjatlar obzori

Mamlakat	Normativ hujjat/Qabul qilish sanasi	Maqsadi/Vazifalari
<b>Argentina</b> 	10.10.1995 yildagi 24.566-son «Alkogol ichimliklar to'g'risida»gi Qonun [6]	<p>Qonun moddasiga ko'ra, Milliy vinochilik instituti Qishloq xo'jaligi, chorvachilik, baliqchilik va oziq-ovqat vazirligi huzuridagi ijroiya markazlashmagan hukumat organi hisoblanadi.</p> <p>Quyidagilar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- tarmoq menejmenti va optimallashtirishga bevosita ta'sir ko'rsatish maqsadlari;</li> <li>- institutsional tuzilma va ichki tashkilot nuqtai nazaridan ishlar;</li> <li>- Institut infratuzilmasi va ichki faoliyat yuritishi bilan bog'liq maqsadlar;</li> <li>- Milliy vinochilik institutining muhit va/yoki boshqa xorijiy yoki milliy davlat muassasalari yoki xususiy sektor bilan, shuningdek, dunyo mamlakatlarining akademik bo'linmalari bilan o'zaro munosabatlari Institutning qisqa va o'rta muddatli maqsadlari hisoblanadi.</li> </ul>

# Jahonda va O'zbekiston Respublikasida uzumchilik va vinochilik sohasidagi qonunchilik hujjatlari va strategik hujjatlar obzori

Mamlakat	Normativ hujjat/Qabul qilish sanasi	Maqsadi/Vazifalari
<b>Rossiya</b> 	Rossiya Federatsiyasining 2019 yil 27 dekabrda 468-FQ-son «Rossiya Federatsiyasida uzumchilik va vinochilik to'g'risida»gi Federal qonuni [7]	<p>Qonun belgilaydi:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1) uzumchilik mahsuloti va vinochilik mahsulotini ishlab chiqarish va aylanishi sohasidagi huquqiy, tashkiliy, texnologik va iqtisodiy asoslar;</li> <li>2) uzumchilik va vinochilik sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish tamoyillari, maqsadlari va uni amalga oshirish chora-tadbirlari;</li> <li>3) uzumchilik va vinochilik sohasida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni amalga oshirish shakllari, shart-sharoitlari va tartibi;</li> <li>4) uzumchilik va vinochilik sohasidagi davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining vakolatlari;</li> <li>5) uzumchilik va vinochilik sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda uzumchilik va vinochilik sub'ektlarining huquqiy holati.</li> </ol>
	Федеральный закон «О виноградарстве и виноделии в Российской Федерации» № 429-ФЗ от 08.12.2020 г [8].	<p>- uzumchilik va vinochilikni qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga tegishli tadbirkorlik faoliyatining turi sifatida belgilash;</p> <p>-himoyalangan geografik ko'rsatishi bilan yoki kelib chiqish, ilmiy (ilmiy-tadqiqot) va innovatsion faoliyat sub'ektlari joyining himoyalangan nomi bilan o'z uzumidan tayyorlangan vinochilik mahsulotini ishlab</p>





# Jahonda va O‘zbekiston Respublikasida uzumchilik va vinochilik sohasidagi qonunchilik hujjatlari va strategik hujjatlar obzori


Mamlakat	Normativ hujjat/Qabul qilish sanasi	Maqsadi/Vazifalari
		chiqarish va (yoki) eksportini amalga oshiruvchi uzumchilik va vinochilik xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash; - uzumzorlar maydonining joylashgan o‘rni, uzumzorlarning huquq egasi, butalar soni, ekilgan toklarning zichligi, ularning holati, nav tarkibi, hosildorligi, uzumning yig‘ib terib olingan hajmi va boshqalar haqida ma’lumotlarni tizimlashtiruvchi ekilgan toklarning reestrini yuritish; - uzumzorlarni inventarizatsiya qilish va vino mahsulotlari ishlab chiqarish uchun yig‘ib olingan uzum hosilini deklaratsiyalash.
<div>Gruziya</div> <div></div>	12.06.1998 yildagi 1438-IIs-son «Tok novdasi va vino to‘g‘risida»gi qonun [9]	Qonun mamlakat iqtisodiyotining ustuvor sohasi sifatida uzumchilik va vinochilikni rivojlantirish, raqobatbardosh uzum vinosi va uzumdan boshqa Alkogolli ichimliklarni ishlab chiqarish va sotish, iste’molchilik bozorini soxta va past sifatli



# Jahonda va O'zbekiston Respublikasida uzumchilik va vinochilik sohasidagi qonunchilik hujjatlari va strategik hujjatlar obzori

Mamlakat	Normativ hujjat/Qabul qilish sanasi	Maqsadi/Vazifalari
		<p>mahsulotlardan himoya qilishga har tomonlama yordam berishni nazarda tutadi. Shuningdek, quyidagilar alohida moddalar bilan tartibga solinadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Gruziyaning uzumchilik va vinochilik sohasidagi faoliyatini tartibga soluvchi organ;</li> <li>- uzumning genetik resurslari va ularni muhofaza qilish, tokning standart navlarining tasnifi;</li> <li>- uzum ekish materialini ishlab chiqarish;</li> <li>- vinoni tasniflash, vinochilik mahsulotlarini belgilash, vinochilik amaliyoti;</li> <li>- kelib chiqishi joyi bo'yicha nomlangan vinolarni ishlab chiqarish va ro'yxatga olish;</li> <li>- kelib chiqishi uzumdan bo'lgan mahsulotlarni sertifikatlash;</li> <li>- eksport va import qilish.</li> </ul>
<b>Moldova</b> 	10.03.2006 yildagi 57-XVI- son «Uzum va vino to'g'risida»gi qonun [10]	<ul style="list-style-type: none"> <li>- uzum parvarishi, uzumchilik va vinochilik sohasida davlat va jamiyatning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish;</li> <li>- tovar uzumi, uzum vinosi va vino sanoatida spirt olish uchun don yoki kartoshkadan tayyorlanadigan suyuqlik hamda vino asosida boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun lozim tarzdagi shart-sharoitlarni yaratish;</li> </ul>

# Jahonda va O'zbekiston Respublikasida uzumchilik va vinochilik sohasidagi qonunchilik hujjatlari va strategik hujjatlar obzori

Mamlakat	Normativ hujjat/Qabul qilish sanasi	Maqsadi/Vazifalari
		<ul style="list-style-type: none"> <li>- uzum-vinochilik sohasidagi xalqaro talablarga tenglashtirish;</li> <li>- Moldova Respublikasining uzum-vinochilik an'analarga ega mamlakat sifatidagi imijini mustahkamlash va sifatli vino eksportini oshirish;</li> <li>- uzum vinosi va vino sanoatida spirt olish uchun don yoki kartoshkadan tayyorlanadigan suyuqlik hamda vino asosida boshqa mahsulotlarni qalbakilashtirishning oldini olish va payini qirqish;</li> <li>- vinoni iste'mol qilish madaniyatini oshirish.</li> </ul>
<b>O'zbekiston Respublikasi</b> 	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni [11]	Zamonaviy agrotexnologiyalar asosida yuqori hosildorlikka ega bo'lgan, ertapishar hamda shirin ta'mga ega pakana va yarim pakana daraxtlarni ekish orqali intensiv bog' va uzumchilikni rivojlantirish:
	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 04.10.2018 yildagi 792-son "Innovatsion rivojlantirish va vinochilik sohasidagi loyihalarni moliyalashtirish manbalarini kengaytirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori [12]	Vino mahsulotlari mahalliy ishlab chiqaruvchilarining ishlab chiqarish, eksport salohiyatini oshirishga va vino xom ashyosi bazasini kengaytirishga ko'maklashuvchi, uzumchilik, shu bilan birga uzumning yangi seleksiya navlarini o'zlashtirishda innovatsion g'oyalarni, zamonaviy texnologiyalarni faol tatbiq etish,

# Jahonda va O'zbekiston Respublikasida uzumchilik va vinochilik sohasidagi qonunchilik hujjatlari va strategik hujjatlar obzori

Mamlakat	Normativ hujjat/Qabul qilish sanasi	Maqsadi/Vazifalari
		shuningdek, fan va innovatsion yechimlar natijadorligini ta'minlash uchun qo'shimcha moliyalashtirish manbalarini shakllantirish va jalb etish.
	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 fevraldagi PF-5656-son "Alkogol va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularning aylanmasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish hamda uzumchilik va vinochilikni rivojlantirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni [13]	<ul style="list-style-type: none"> <li>- O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzurida Uzumchilik va vinochilikni rivojlantirish agentligini tashkil qilish;</li> <li>- Uzumchilik va vinochilikni yanada rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan Alkogol va tamaki mahsulotlarini realizatsiya qilish tizimini takomillashtirish, ularning ishlab chiqarilishi va aylanmasini samarali monitoring qilish, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini qisqartirish va mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirish.</li> </ul>
	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 fevraldagi PQ-4141-son "O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Uzumchilik va vinochilikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori [14]	Uzum yetishtiruvchilarni Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish hamda vinochilikni rivojlantirish agentligining Vinochilikni rivojlantirish jamg'armasi, shuningdek, Bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini rivojlantirish agentligining Bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan qo'llab-quvvatlashning shunday tartibi o'rnatiladiki, unga muvofiq yangi uzum plantatsiyalarini yaratish uchun subsidiyalar:

# Jahonda va O'zbekiston Respublikasida uzumchilik va vinochilik sohasidagi qonunchilik hujjatlari va strategik hujjatlar obzori

Mamlakat	Normativ hujjat/Qabul qilish sanasi	Maqsadi/Vazifalari
		<ul style="list-style-type: none"> <li>- tomchilatib sug'orish texnologiyasini joriy etishga qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda;</li> <li>- 35 gektardan ziyod uzum plantatsiyalarida suv chiqarish uchun burg'ilangan quduqlarni, shuningdek daryolar, kanallar va boshqa suv havzalaridan suv tortish uchun nasos stansiyalarini qurishga har 35 gektar uchun 120 million so'mdan oshmaydigan miqdorda taqdim etiladi;</li> <li>- vinochilik korxonalarining uzumni birlamchi qayta ishlash bo'yicha mavjud shoxobchalarini modernizatsiya qilish dasturiga takliflarni kiritish.</li> </ul>
	<p>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 30 martidagi 271-son "O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Uzumchilik va vinochilikni rivojlantirish agentligi hamda O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Uzumchilik va vinochilikni rivojlantirish agentligining Uzum yetishtiruvchilar va vino tayyorlovchilarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida"gi qarori [15]</p>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Uzumchilik va vinochilikni rivojlantirish agentligi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash; O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Uzumchilik va vinochilikni rivojlantirish agentligining Uzum yetishtiruvchilar va vino tayyorlovchilarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash;</li> <li>2. «Enologiya laboratoriyasi» davlat unitar korxonasi va «Uzumchilik o'quv markazi» davlat unitar korxonasi ustavlarini ishlab chiqish va tasdiqlash;</li> <li>3. «Enologiya laboratoriyasi» davlat unitar korxonasi zarur zamonaviy laboratoriya anjomlari bilan jihozlanishini va milliy darajada akkreditatsiyadan o'tkazilishini,</li> </ol>



# Jahonda va O'zbekiston Respublikasida uzumchilik va vinochilik sohasidagi qonunchilik hujjatlari va strategik hujjatlar obzori


Mamlakat	Normativ hujjat/Qabul qilish sanasi	Maqsadi/Vazifalari
		<p>shuningdek, uzum, mevalar va rezavorlardan Alkogolli mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha tajriba ishlab chiqarishi tashkil etilishini ta'minlash;</p> <p>4. Soha tashkilotlarining kolleksiyalari hisobiga O'zbekiston vino kolleksiyasini yaratish hamda har yili uning soha tashkilotlari mahsulotlari bilan to'ldirilishini ta'minlash;</p> <p>5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga «Enologiya laboratoriyasi» davlat unitar korxonasi huzurida uzumning texnik navlari plantatsiyasini yaratish, shuningdek, «Vinochilik texnologiyasi va sanoat uzumchiligi» fakulteti talabalari, Toshkent kimyo-texnologiya instituti huzuridagi Vinochilik sohasi mutaxassislarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash markazi tinglovchilari uchun o'quv va ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish yuzasidan takliflar kiritish.</p>
	<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.12.2019 yildagi PQ-4549-son "Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish, sohada qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori [16]</p>	<p>1. Mahalliy sharoitda yetishtirilgan intensiv ko'chatlar (pakana va yarim pakana) hamda payvandtaglarni sotib olish xarajatlarining bir qismini qoplash uchun subsidiyalar ajratish;</p>

# Jahonda va O'zbekiston Respublikasida uzumchilik va vinochilik sohasidagi qonunchilik hujjatlari va strategik hujjatlar obzori

Mamlakat	Normativ hujjat/Qabul qilish sanasi	Maqsadi/Vazifalari
		<p>2. Umumiy qiymatining kamida 15 foizi loyiha tashabbuskori tomonidan moliyalashtiriladigan uzumchilik yo'nalishidagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun tijorat banklari tomonidan ajratiladigan kreditlar bo'yicha bo'lg'usi hosil, tokzor va (yoki) yer uchastkasiga bo'lgan huquqni garovga olgan holda kafillik taqdim etish;</p> <p>3. Uzum ko'chatlarini shpalerga ko'tarish uchun subsidiyalar ajratish.</p>
	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 30 yanvardagi 52-son "Oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash dasturlari doirasida bog'dorchilik, uzumchilik va issiqxona xo'jaligini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori [17]	Intensiv bog' va tokzorlar barpo etish, issiqxonalar qurish ishlari; "Har bir oila — tadbirkor" dasturi doirasida bog'dorchilik, uzumchilik, issiqxona xo'jaligi sohasida oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashni O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini rivojlantirish agentligi hamda Uzumchilik va vinochilikni rivojlantirish agentligi zimmasiga yuklash.
	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 30 noyabrdagi 753-son "O'zbekiston Respublikasi Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish hamda vinochilikni rivojlantirish agentligi faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori [18]	1. O'zbekiston Respublikasi Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish hamda vinochilikni rivojlantirish agentligining maqomi, asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari, javobgarligi, faoliyatini tashkil etish va hisobot berish tartibini, shuningdek, uning rahbarlarining funksional vazifalari va javobgarligini belgilash;

# Jahonda va O'zbekiston Respublikasida uzumchilik va vinochilik sohasidagi qonunchilik hujjatlari va strategik hujjatlar obzori

Mamlakat	Normativ hujjat/Qabul qilish sanasi	Maqsadi/Vazifalari
		2. «Enologiya laboratoriyasi» unitar korxonasi zarur zamonaviy laboratoriya anjomlari bilan jihozlanishini va xalqaro darajada akkreditatsiyadan o'tkazilishini ta'minlash.
	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.01.2021 yildagi PQ-4941-son "Namangan viloyatining Kosonsoy, Chortoq va Yangiqo'rg'on tumanlarida meva-sabzavotchilik va uzumchilikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori [19]	<ul style="list-style-type: none"> <li>- oziq-ovqat mahsulotlarini ko'paytirish;</li> <li>- aholi bandligini ta'minlash;</li> <li>- mavjud yer maydonlaridan samarali foydalanish;</li> <li>- mahsulot yetishtirish hajmlarini oshirish;</li> <li>- Namangan viloyatida har bir hududda sabzavot, kartoshka, dukkakli va moyli ekinlarni yaxlit maydonlarga joylashtirish orqali mahsulotni qayta ishlash hamda eksport qilish;</li> <li>- plantatsiya usulida intensiv va mevali bog' hamda tokzorlar barpo etish.</li> </ul>
	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 28 iyuldagi PQ-5200-son "Uzumchilikni rivojlantirishda klaster tizimini joriy etish, sohaga ilg'or texnologiyalarni jalb qilishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori [20]	<ul style="list-style-type: none"> <li>- mamlakatimizda uzumchilikni yanada rivojlantirish va uzum yetishtirish bo'yicha klaster tizimini yo'lga qo'yish,</li> <li>- tizimini yo'lga qo'yish,</li> <li>- uzumni qayta ishlash, tayyor mahsulot ishlab chiqarish,</li> <li>- hududlar kesimida ko'chat ekish va uzum etishtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish va tasdiqlash;</li> </ul>



# Jahonda va O‘zbekiston Respublikasida uzumchilik va vinochilik sohasidagi qonunchilik hujjatlari va strategik hujjatlar obzori

Mamlakat	Normativ hujjat/Qabul qilish sanasi	Maqsadi/Vazifalari
		<ul style="list-style-type: none"><li>- Alkogol bozorini tartibga solishning samarali mexanizmlarini keng joriy etgan holda respublikani sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash-</li><li>- sohaning eksport salohiyatini kuchaytirish, investitsion jozibadorligini oshirish, shuningdek, vinochilik turizmini (enoturizm) rivojlantirish.</li></ul>





1. <https://www.oiv.int/public/medias/7156/en-oiv-strategic-plan-2020-2024-web.pdf>
2. [https://datewiki.ru/wiki/Alcoholic\\_Beverage\\_Labeling\\_Act](https://datewiki.ru/wiki/Alcoholic_Beverage_Labeling_Act)
3. [https://www.vintage-m.ru/blog/new\\_wine\\_laws\\_germany/](https://www.vintage-m.ru/blog/new_wine_laws_germany/)
4. <http://vinoteh.com/vina-italii.html>
5. <http://naukarus.com/zakonodatelstvo-ispanii-o-vine-i-vinodelii>
6. <http://naukarus.com/osobennosti-administrativno-pravovogo-obespecheniya-i-realizatsii-gosudarstvennogo-upravleniya-v-oblasti-vinodelcheskogo->
7. [http://www.consultant.ru/document/cons\\_doc\\_LAW\\_341772/](http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_341772/)
8. <http://pravo.gov.ru/proxy/ips/?docbody=&firstDoc=1&lastDoc=1&nd=102651464>
9. <https://forum.vinograd.info/showthread.php?t=3212>
10. [http://base.spinform.ru/show\\_doc.fwx?rgn=14080](http://base.spinform.ru/show_doc.fwx?rgn=14080)
11. <https://lex.uz/docs/3107042>
12. <https://lex.uz/docs/3930450>
13. <https://lex.uz/ru/docs/4193071>
14. <https://lex.uz/docs/4278986>
15. [http://base.spinform.ru/show\\_doc.fwx?rgn=115074](http://base.spinform.ru/show_doc.fwx?rgn=115074)
16. <https://lex.uz/ru/docs/4641169>
17. <https://www.lex.uz/docs/4723579>
18. <https://lex.uz/docs/5123707>
19. <https://lex.uz/ru/docs/5214144>
20. <https://lex.uz/docs/5541007?ONDATE=29.07.2021%2000>



O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi  
Ilmiy-texnik axborot markazi

Toshkent-2021